

Date: 27th November-2025

TADBIRKORLIKNING JAMIYAT UCHUN AHAMIYATI

Xolmurodova Sofiya Sodikovna

Термиз shahar politexnikumi

Maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tadbirkorlikning jamiyat rivojida iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati o'rganilgan. Tadbirkorlik ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni joriy etish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va shaxsiy tashabbuskorlikni rivojlantirish orqali jamiyat farovonligiga hissa qo'shadi. Tadqiqot natijalari tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatlari bo'yicha ahamiyatini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, bozor iqtisodiyoti, innovatsiya, kichik biznes, erkin raqobat, investitsiya.

Аннотация: В статье рассматривается социально-экономическое значение предпринимательства в развитии общества. Предпринимательство способствует повышению благосостояния общества, создавая рабочие места, внедряя инновации, обеспечивая экономическую стабильность и развивая личную инициативу. Результаты исследования подтверждают важность предпринимательской деятельности в экономическом, социальном и культурном аспектах.

Ключевые слова: предпринимательство, рыночная экономика, инновации, малый бизнес, свободная конкуренция, инвестиции.

Abstract: This article examines the social and economic significance of entrepreneurship in the development of society. Entrepreneurship contributes to the well-being of society by creating jobs, introducing innovations, ensuring economic stability, and developing personal initiative. The results of the study confirm the importance of entrepreneurial activity in economic, social, and cultural aspects.

Keywords: entrepreneurship, market economy, innovation, small business, free competition, investment.

Kirish: Bugungi globallashuv davrida mamlakatlarning iqtisodiy qudratini belgilovchi muhim omillardan biri — bu tadbirkorlik faoliyatidir. Tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi, balki yangi ish o'rinlari yaratish, aholi turmush darajasini oshirish va innovatsion g'oyalarni amalga oshirishda ham asosiy omil hisoblanadi. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlikni qo'llabquvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Asosiy qism:

1. Tadbirkorlik tushunchasi va uning mohiyati

“Tadbirkorlik” atamasi o'z mohiyatiga ko'ra, foyda olish maqsadida tashabbuskorlik bilan amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatni anglatadi. Tadbirkorlikning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- tashabbuskorlik va yangicha yondashuv;



Date: 27th November-2025

- ma'lum darajada tavakkalchilikni o'z ichiga olishi;
- foyda olishga qaratilgan bo'lishi;
- jamiyat va bozor talabiga mos kelishi.

2. Tadbirkorlikning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati

Tadbirkorlik faoliyati jamiyat hayotida quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

- yangi ish o'rinlari yaratadi;
- iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi;
- aholining daromad manbalarini kengaytiradi;
- raqobat muhitini shakllantiradi;
- byudjetga soliq tushumlarini ko'paytiradi.

Masalan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivoji tufayli mamlakatimizda minglab odamlar mehnat bilan band bo'lmoqda.

3. O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish islohotlari

So'nggi yillarda respublikamizda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Jumladan:

- tadbirkorlar uchun soliq imtiyozlari berilmoqda;
- kredit va investitsiya olish sharoitlari yengillashtirilmoqda;
- "yagona darcha" tamoyili asosida davlat xizmatlari ko'rsatilmoqda;
- yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus dasturlar ishlab

chiqilmoqda.

Prezidentimizning farmon va qarorlari asosida kichik biznes subyektlarini qo'llabquvvatlash bozor iqtisodiyotini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

4. Innovatsion tadbirkorlik va kelajak istiqbollari

Bugungi kunda innovatsion tadbirkorlik alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarish, startap loyihalarini amalga oshirish, elektron tijoratni rivojlantirish — ularning barchasi iqtisodiy o'sishga yangi turtki bermoqda.

Kelajakda raqamli iqtisodiyot, "yashil energetika" va IT sohasidagi tadbirkorlik yo'nalishlari dolzarb bo'lib qoladi. Shu sababli yoshlar innovatsion g'oyalar bilan chiqib, ularni biznesga tatbiq etishlari mamlakat taraqqiyotining muhim omilidir.

Mamlakatimizda demokratik islohotlar, tadbirkorlik va uni rivojlantirish imkoniyatlari O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I. Karimov asarlarida o'z tasdig'ini topadi. 5 O'zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichida esa tadbirkorlarning mamlakat rivojlanish strategiyasi va yangi rivojlanish bosqichida ahamiyati O'zbekiston Respublikasi hoziri prezidenti Sh. Mirziyoyev asarlarida ifodalangan. 6 Jahondagi rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida asosiy omil vazifasini tadbirkorlik faoliyati tashkil etadi. Bugungi kunga kelib bizning davlatimizda ham tadbirkorlik yoini kichik biznes tushunchalari yildan yilga keng ildiz otib bormoqda. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes yurtimiz iqtisodiyotining asosiy yo'nalishi sifatida belgilangan.



Date: 27th November-2025



Ohirgi besh yilda ushbu yo'nalishni rivojlantirishga yo'naltirilgan 2000 ga yaqin qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Ular asosida, 114 ta litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi, 33 ta faoliyat turi xabardor qilish tartibiga o'tkazildi. Ruxsatnomalarni rasmiylashtirish tartiblari soddalashtirib, muddatlari o'rtacha 2 barabarga qisqartirildi. Ortiqcha tekshirishlar, naqd pul, valyuta va hom ashyo bo'yicha ko'plab cheklovlarga barham berildi. Yuqoridagi qulaylik va imkoniyatlar natijasida yangi subektlar nihoyatda ko'payib, oldindan ishlayotganlari faoliyatini yanada rivojlantirmoqda. So'ngi besh yilda tadbirkorlar soni salkam 3 baravar oshdi. Ko'plab tadbirkorlar o'z biznesini butun mamlakat bo'ylab kengaytirib, minglab ish o'rinlari yaratishdi va yirik kompaniyalarga aylandi. Ichki va tashqi bozorda o'z nufuzi va brendiga ega tadbirkorlar sinfi paydo bo'la boshladi.

Xususan birinchi yo'nalish-biznesni moliyalashtirish, ikkinchisi-soliq tizimini takomillashtirish hamda tadbirkorga soliq yukini kamaytirish, uchinchisi-yer ajratish, to'rtinchisi-infratuzilma, beshinchisi-ekspartyor korxonalarini qo'llab quvvatlash, oltinchisi-transport-logistika, yettinchisi-sohadagi tartib tamoyillarni soddalashtirish masalalariga bag'ishlandi va davlatimiz rahbari har bir yo'nalish bo'yicha dolzarb vazifalarni ko'rsatib, yangi tashabbuslarni ilgari surdi. O'zbekistonda Tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, tashabbuskorlikni rag'batlantirish, ularga keng imkoniyatlar yaratib berish, tadbirkorlik sohasida katta-katta marralarga erishish uchun kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasining rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiyl mulk xuquqini himoya qilish va uning ustuvir mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va hususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohatlarni davom ettirish" 8 bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan.

Buning natijasida mamlakatimizda ishonchli tadbirkorlik muhiti shakllanmoqda. Rivojlangan Sharqiy Osiyo mamlakatlari kabi yurtimmizda ham yakka tadbirkorlikni rivojlantirishga katta etibor qaratilmoqda. Singapur, Malayziya kabi mamlakatlar aholisining deyarli 80 foizi kichik biznes va hususiy tadbirkorlik sektorida faoliyat olib boradi. Kichik biznes AQSh, Germaniya, Xitoy, Fransiya, Yaponiya, Italiya kabi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini barqarorlashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Xalqaro Kichik biznes kengashi (ICSB) malumotlariga ko'ra kichik biznes subektlari barcha korxonalarning 90 foizidan ortig'ini, ish bilan band bo'lganlarning 60-70 foizini, yalpi ichki mahsulotning 50 foizini tashkil etadi. 10 2017-yil kichik biznes va hususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 53.3 foizni yoki 119301 mlrd so'mni tashkil etdi. (Germaniyada – 54 foiz, AQShda – 52 foiz, Yaponiyada – 55 foiz, Rossiyada – 20 foiz, Qozog'istonda – 25.6 foiz). Kichik biznesni sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi ulushi 2000-yilda 12.9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilda ushbu ko'rsatkich 39.6 foizga yetdi, qishloq ho'jaligida – 99 foizni, chakana savdo aylanmasida – 88.4 foizni, qurilish sohasida – 65.1 foizni tashkil etdi. Kichik biznesning mamlakat

Date: 27th November-2025



mustaqil hujjat sifatida biznes reja ishlab chiqish uchun asos boiishi yoki biznes rejaga bir bo'lim qilib kiritilishi mumkin. Loyiha - bu kutilayotgan texnik, texnologik va tashkiliy iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun zarur g'oya va uni amalga oshirish uchun zarur vositalarning ifodasi hisoblanadi. Loyiha, shuningdek, ma'lum harakatlarni amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy va ma'oliyaviy hisob-kitob hujjatlari yigindisi deb ham tushuniladi.

Investitsiya loyihasi - bu ijtimoiy samaraga erishish yoki daromad olish uchun yangi tovar (xizmat)ni ishlab chiqarishni tashkil etish yoki mavjud ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar yig'indisidir. Biz ushbu qo'llanmada zarurlik darajasiga qarab reja, biznes reja, tadbirkorlik loyihasi, TIA kabi atamalarini uyg'unlashgan holda ishlatdik, Tadbirkorlik loyihasi - daromad olish maqsadida ishlab chiqarish yoki tadbirkorlikning turli sohalarida xizmatlar ko'rsatish bo'yicha ishlab chiqarishni tashkil etishga yo'naltirilgan loyiha tushuniladi. Tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish asosida shu loyihani amalga oshirish imkoniyatlarini aniqlash yotadi

Tadbirkorlik asoslari fanining predmeti tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, amalga oshirish, rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash jarayonlari, ularning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy, moddiy, moliyaviy, marketing, boshqarish va boshqa asoslari hisoblanadi. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida bo'lib, jamiyatda bozor munosabatlari, tuzilmalari, infratuzilmasi shakllanib kelayotgan, ijtimoiy-iqtisodiy tizim bozor iqtisodiyoti qonunlari, tamoyillari, talablariga moslashtirib qayta qurilayotgan bir paytda tadbirkorlik sohasi shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Bunday sharoitda tadbirkorlik sohasida zaruriy obyektiv qonunlar, qonuniyatlar, tamoyillar bilan bir qatorda nozaruriy, tasodifiy, o'tkinchi hodisalar, holatlar ham, yechimini kutayotgan muammolar ham ko'proq bo'lishi tabiiy. Mazkur muammolarni tezroq yechish va tadbirkorlikni yuqori rivojlangan madaniy darajaga ko'tarish uchun tadbirkorlarga ham, sohani tartibga solish va qo'llab-quvvatlashga mas'ul bo'lgan xodimlarga ham bilim va tajriba yetishmasligi ayon bo'lib qoldi. Shuning uchun O'zbekistonda tadbirkorlik sohasini har tomonlama, chuqur tadqiq qilish, bu sohadagi ilmiy-tadqiqot natijalari va ilg'or tajribani amaliyotga tatbiq etish, talabalar, o'quvchilar, aholi keng qatlamlariga tadbirkorlik to'g'risida bilim berish dolzarb masala bo'lib yuzaga chiqdi. Bu masalani hal qilishda tadbirkorlik asoslari fani muhim rol o'ynaydi.

Xulosa: Tadbirkorlik – iqtisodiy rivojlanishning tayanchi, jamiyat taraqqiyotining lokomotivi hisoblanadi. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yangi imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Har bir yosh tadbirkorlik ruhida tarbiyalanishi, o'z g'oyalarini amaliyotga joriy qilishi mamlakatimizning barqaror kelajagini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari to'plami. – Toshkent, 2023–2025.

Date: 27th November-2025

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti – www.mf.uz
4. Shodmonov Sh., G'ulomov S. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2019.
5. Xalqaro tajribalar asosida tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy maqolalar (Jahon banki hisobotlari, OECD ma'lumotlari).

